

GIPOTIREOZ VA KOAGULYATSION TIZIM

Mamadaliyeva Sh.R, Ravshanova M.A,
Yusupova U.R, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Kalit so’zlar. Gipotireozda, qalqonsimon, gemostatik, peroral.

Gemostatik balans bu kompleks tizim bo‘lib, uning funksiyalari bir nechta omillar tomonidan tartibga solinib, bu omillar gormonlarni ham o‘z ichiga oladi. Bir qator gemostatik kasalliklar ko‘pincha endokrin kasalliklari mavjud bo‘lgan bemorlarda uchraydi. Ayniqsa, bir qancha qalqonsimon bez kasalliklari gemostatik o‘zgarishlarga olib kelishi aniqlangan bo‘lb, ular gemostatik mexanizmlar funksiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1]. Gipotireozda koagulyatsion-fibrinolitik o‘zgarishlar kuzatilishini Egeberg tomonidan 1963-yilda aniqlangan bo‘lib, bu holat koagulyatsiyaning VIII faktori, IX faktori va XI faktori miqdorining pasayib ketishi natijasida bo‘lishi mumkinligini aniqladi [2]. Shunday bo‘lsada, gipotireozda qon ivishining anormalliklarini hisobga oladigan mexanizmlar yaxshi o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqot qalqonsimon bezning gipotireoz kasalligi bilan koagulyatsion tizimning o‘zaro bog’liqligini o‘rganish maqsadida amalga oshirilmoqda. Tajriba uchun o‘rtacha og‘irligi 150-200 g atrofida bo‘lgan erkak kalamushlardan foydalanildi. Ular standart ratsion bilan laboratoriya sharoitida ikki hafta davomida boqildi. Tajriba guruhhlariga gipotireoz kasali chaqirish maqsadida 21 kun davomida merkazolil preparati (1,2 mg/100g tana massaga) peroral usulda berildi [3]. Hozirda sog’lom va gipotireoz kalamushlarda qalqonsimon bez kasalliklari va gemostatik tizimning o‘zaro bog’liqligini o‘rganish maqsadida tajribalar davom etmoqda. Shu bilan birga korreksiyalash maqsadida bir nechta o‘simgliklardan ajratib olingan biologik faol moddalardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Franchini M, Lippi G, Manzato F, Vescovi PP, Targher G. Hemostatic abnormalities in endocrine and metabolic disorders. *Eur J Endocrinol* 2010;162(3):439–451
2. Gullu S, Sav H, Kamel N. Effects of levothyroxine treatment on biochemical and hemostasis parameters in patients with hypothyroidism. *Eur J Endocrinol* 2005; 152(3):355–361
3. Городецкая И.В., Кореневская А.Н. Влияние тиреоидного гостатуса на интенсивность стресс-реакции при хроническом стрессовом воздействии // *БЕСТНИК ВГМУ*, 2010, ТОМ 9
4. Xayrullayeva L.M. Ochlikni neyroendokrin tartibga solish orqali semizlikni davolashda o’simlik birikmalaridan foydalanish.Xorazm Mamun Akademiyasi,2023.-14 b.5
5. Rahmatullayev Y. Sh, Avliyoqulova M. B, Hakimova M. A, o‘zbekiston respublikasining janubiy viloyatlari sharoitida maktab o‘quvchilarining amaldagi ovqatlanishi va jismoniy taraqqiyoti.Xorazm Ma’mun Akademiyasi- 2023.